

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQ DOSTONLARI ASOSIDA
TARBIYALASH

Qahramonov Aliboy Yolgoshovich

Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o'qituvchisi

Xonnazarova Hilola Nomoz qizi

Aliyeva Maftuna Alavutdin qizi

ISFT instituti Boshlang'ich ta'lif fakulteti 3-kurs talabalari

Annotatsiya: Yoshlarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta'lif berish mamlakatimizning ta'lif sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuni aytish kerakki, boshlang'ich ta'lif muammolarini yechish, uni nazariy va amaliy jihatdan o'r ganish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq dostonlari asosida tarbiyalash, dostonlar orqali ularda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oila va yaqinlariga mehr - muhabbat uyg'otish masalalari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: doston, xalq og'zaki ijodi, tarbiya, ta'lif, islohot, qahramon, afsona, xalq, metod, usul, obraz, ijod.

Mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy - axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta'lif berish mamlakatimizning ta'lif sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lif, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli boshlang'ich ta'lif mazmuni ham tubdan o'zgardi. Milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida yangi dasturlar, darsliklar, o'quv metodik tavsiyalar, ilmiy-metodik qo'llanmalar yaratildi. Mustaqil respublikamizda kichik yoshdagi o'quvchilarni yangi talab asosida o'qitish va tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Yangi davlat ta'lif standarti, boshlang'ich ta'lif konsepsiysi yaratildi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek poydevor mustahkam bo'lsa imorat ham mustahkam bo'ladi. Boshlang'ich sinflar uchun ta'lif va tarbiya muhim bo'lib, ularga buni xalq dostonlari misolida yetirishga harakat qilamiz. Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlarini yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar

hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig‘iga o‘ralgan qahramonlik voqealarining o‘ziga xos badiiy ifodasidir.

O‘zbek xalq qahramonlik dostonlari ham asrlar davomida yaratildi va ularning eng yaxshi namunalari xalq san’atkorlari — baxshilar tomonidan jonli epik an’analarda og‘zaki ravishda bizgacha olib kelindi. Bunday dostonlarning qadimiy ildizlari saklar, massagetlar, sugdiylar, xorazmiylarga mansub urug‘ va qabilalarning afsona va rivoyatlariga borib taqalsa-da, ularning kattagina qismi o‘zbeklarning yagona xalq sifatida shakllanishida asos bo‘lgan urug va qabilalarda patriarchal-urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk feodal tuzumming yuzaga kela boshlashi davrlarida yaratilgan.

O‘qish darslarida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo‘lamiz.

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o‘zлari yaratilgan davning umumiyy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an’naviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdoddardan avlodlarga og‘zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig‘iga o‘ralgan qahramonlik voqealarining o‘ziga xos badiiy ifodasidir. O‘zbek xalq qahramonlik dostonlari ham asrlar davomida yaratildi va ularning eng yaxshi namunalari xalq san’atkorlari — baxshilar tomonidan jonli epik an’analarda og‘zaki ravishda bizgacha olib kelindi. Bunday dostonlarning qadimiy ildizlari saklar, massagetlar, sugdiylar, xorazmiylarga mansub urug‘ va qabilalarning afsona va rivoyatlariga borib taqalsa-da, ularning kattagina qismi o‘zbeklarning yagona xalq sifatida shakllanishida asos bo‘lgan urug‘ va qabilalarda patriarchal-urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk feodal tuzumming yuzaga kela boshlashi davrlarida yaratilgan.

O‘zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, uning milliy madaniyati, ilm-fan, san’at va adabiyot sohasida erishgan yutuqlarida, oilaviy turmush tarzida bola tarbiyasida qo‘llangan usul va tadbirlarida namoyondir. Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, urf-odat va an’analar, tarbiya haqidagi g‘oyalari – hayotiy tajribalar o‘zbek xalq pedagogikasida mujassamdir. Hali maktab bo‘limgan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrdayoq qabila a’zolarining bolalar tarbiyasi sohasida orttirgan tajribalari hayotiy tajriba mevasi sifatida bizning davrga qadar yetib keldi asta shakllanib bordi.

Boshlangich sinf o‘quvchilarini asosan jamiyatda yashagan xalq ruhi, do‘stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g‘oyalari, ota-onalarning o‘zaro ahilligi, ular bilan farzandning o‘zaro mehr-muhabbati, qadr-qimmati, insoniy eng yaxshi fazilatlari, u ijod etgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, lapar, askiya, dostonlar va boshqalar asosida tarbiyalab borishimiz lozim. Bu yodgorliklar o‘z muxtasarligi, qiziqarliligi, raxonligi, ohangdorligi, pandnomaligi (didaktikligi), g‘oyaviyligi bilan g‘oyatda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

O‘zga xalqlarda bo‘lganidek, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarining ham xalq hayoti bilan mustahkam bog‘liqligi ularning ham milliy o‘ziga xosligini, ham umuminsoniyligini

belgilab beradi. Bu ikki xususiyat o'zbek xalq og'zaki ijodining mavzu doirasida, hayotiy voqelikni yoritishda, badiy shaklida va nihoyat, tilida aksini topganligi yaqqol seziladi. Boshlang'ich sinflarda nisbatan ko'proq o'rganiladigan ertaklar, topishmoqlar, maqollarning, dostonlar til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog'liq hamda farq qiladigan tomonlari bilan ajralib turadi.

O'quvchilarga doston qahramonlari kimlar va nimalar bo'lsa, o'shalarga xos xususiyat obrazlarda mujassamlanadi. Mehnatkash xalq vakili ochiqko'ngil, mard, mehr-shafqatli, halol, botir, aqli bo'lsa, boylar ochkiz, birovning haqiga jabr qiladigan, qo'rroq, manman, befahm, farosatsiz qilib tasvirlanadi. Tulki-ayyor, bo'ri-yirtqich, ochko'z, quyon-sodda, qo'rroq, eshak-mehnatkash, tuya-chidamli, ot-kuchli va chaqqon, it-mehrli, sigir, qo'y-boylik va farovonlik timsolida ifodalanadi. Bunday ramziy ma'nolarni barcha personajlar ifodasida anglab olish qiyin emas. Agar birontasining xususiyati almashib qolsa, boshlang'ich sinf o'quvchisi unga e'tiroz bildiradi. Hatto qiziqib o'rgangisi kelmaydi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik mahorat bilan dostonda ishtirok etgan har bir obrazning xarakterli xususiyatini o'quvchilarning ko'zi oldida oolib berishi lozim. Buning uchun o'qituvchi har bir asosiy obraz ustida suhbat o'tkazadi. Hamda ularning tarbiyaviy ahamiyatini, ijobiy, salbiy jixatlarini oolib beradi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish va tahlil qilishdan ko'zlanuvchi metodik maqsadlardan eng muhimi o'quvchini mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga, ravon so'zlash, tafakkur shakllariga tayanib hayot hodisalari zamiridagi ma'nolarni anglab olishga o'rgatish, kulgi yoki pand-nasihatlar ortiga yashiringan haqiqatlar mohiyatini tushunib, xulosa chiqarishga yo'llashdir. Bolaning fikrlashi va ilm olishga intilishi o'zaro uzviy aloqadorlikdagi jarayondir. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish va tahlil qilish jarayonida xalq yaratgan qahramonlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvori, ruhiy olamga munosabat bildirishi o'quvchini fikrlashga yo'naltiradi. Bugungi kunda zavq bilan o'qilayotgan, maroq bilan aytيلayotgan doston, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, askiya va latifa, loflar o'zbek xalq og'zaki ijodining janrlari hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi asarlari tahlili ajdodlarimizning yosh avlodni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish borasida qadimiy va ilg'or an'analarini tiklash yo'lidagi muhim bir qadamdir.

Xalq og'zaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg'or va hayotbaxsh an'analarini o'zida mujassamlashtirgan ma'naviyat sarchashmasidir. Ana shu ma'naviy merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liq urf-odatlar, an'analar alohida o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari tahlili orqali o'quvchining o'ziga xos ruhiy olamiga ta'sir ko'rsatish, ularning o'z tuyg'ulariga tayanib fikrlashlari uchun imkoniyat yaratish ko'zda tutilgani diqqatga sazovordir.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish orqali o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni ular ruhiyatiga yaqinlashtirish, har jihatdan yetuk, insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalash maqsadi belgilangan. Ta'lim jarayonining har bir bosqichida o'quv materiallarini o'quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, ruhiyati, intilishlari va qiziqishlarini e'tiborga olgan holda munosabatda bo'lish ko'zda tutilgan.

Dostonlarda tasvirlangan voqeа-hodisalar yakka shaxs, favqulodda kuch-qudratga ega bo'lgan xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Badiiy adabiyotda, asosan, ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og'zaki ijodida baxshilar tomonidan

og‘zaki tarzda kuylanib kelingan dostonlardir. Masalan, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlar, «Malikai ayyor», «Ravshan», «Kuntug‘mish», «Rustamxon» kabilar og‘zaki dostonlar namunalaridir. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro‘z», Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo‘lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Asarda o‘zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag‘rikenglik, matonat, oljanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o‘z ifodasini topgan. Qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o‘zligini anglagan, ma’naviy boylikka ega bo‘lgan. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi”. “Alpomish” dostonida oiladan, urug‘dan ajralish vatandan, elidan ayrilish ekanligi, bu judolikning epik qahramonlarga keltirgan qancha-qancha azob-uqubatlari va kulfatlari chuqur ruhiy holatlarda o‘z aksini topgan. Alpomish va Barchinning, ularni qurshab turgan el-yurtning o‘zaro munosabatlari, xatti-harakatlari, tutumlari, qarashlari juda katta o‘rnakdir. Shu o‘rinda yana bir ta‘kidni eslatmoqchimiz: komil insonni tarbiyalashda ota-onani ibrat qilib ko‘rsatish milliy udum va qadriyat ekanligi, umuman, oila ma’naviyati va sog‘lom turmush tarzining xalq dostonlaridagi talqinlarini maktab o‘quvchilariga alohida o‘rgatish, bu haqidagi kuzatishlarni ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda dostonlardan berilgan parchalarda, asosan, qahramonlarning bolalik davri aks etgan epizodlar keltiriladi. Bunda bolalarni qahramonlikka, Vatanga sadoqatli bo‘lishga chorlovchi voqealar tasvirlanadi. 3-sinf darsligidan o‘rin olgan „Rustamxon”, „Alpomish” dostonlari xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lganligi uchun muallif haqida ma'lumot berilmaydi. Faqat bu dostonlar o‘rganiladigan darslarda dostonni qo‘shiq qilib aytadigan baxshilar haqida ma'lumot berish mumkin.

Qahramonlik dostonlari tahlilida voqealar rivojiga, qahramonlar hayotiga alohida e’tibor qaratiladi. Dostondagi mubolag‘a, favqulodda yuz beradigan vaziyatlar aniqlanadi, doston qahramonlariga tavsif berish va tarbiyaviy xulosa chiqarishda o‘quvchilarning mustaqil mulohaza yuritishlari uchun sharoit yaratiladi.

Xalq dostonlarini o‘qitishda yangi ta’lim texnologiyalarini kiritib, “noan’anaviy ta’lim usullaridan: “Konferensiya darsi”, “Seminar darsi”, “Aralash darslar”, “O‘yinchoqlar yordamida dars o‘tish”, “Kasbga bog`lab dars o‘tish”, “Badiiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish”, “Evrika” (O‘ylab top); ta’limning qiziqarli faol usullaridan: “Kichik va katta guruhlarda ishlash”, “Rolli o‘yinlar”, “Sahna ko‘rinishi”, “Krossvordlar yechish”, “Zakovat savollari”, “Test-sinov” topshiriqlari, “Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o‘tish”, “Sinkveyn o‘yinlari”; shuningdek, ta’limning innovatsion (yangi) usullari: “Modifikatsiyalashgan ta’lim”, “Improvizatsiya”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Taqnidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul”, “Klaster usuli”, “Muammoli vaziyat”, “Muayyan holat, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish”, “Har kim har kimga o‘rgatadi”, “Nuqtai nazaring bo‘lsin”, “Multimediya” va boshqalarni qo‘llashi muhimdir”.

Ma'naviy-axloqiy va aqliy tarbiyaning yuksak darajasi asosida milliy g'oya va milliy g'urur turadi. O'quvchi shaxs va fuqaro sifatida o'z allomalarining insoniy fazilat va xislatlar to'g'risidagi qarashlari, hamda millati tarixini mukammal bilmog'i lozim. Ana shunda dini, urfatlari, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarni qadrlaydi, undan doimo faxrlanadi. Faxrlanish tuyg'usi sog'lom fikr ruhida o'z shogirdlariga o'tadi. Fikrlarni g'oya darajasiga ko'tarish uchun uning ta'sirchanligi, salmog'i va samaradorligiga erishish lozim.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida bolalarning dostonlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat berish zarur. Badiiy asarlar, dostonlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish va ularni sahnalashtirish, yod oldirish o'qituvchiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risidagi qonun» - Toshkent, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
3. S.Matjonov. X.G'ulomova, M.Suyunov, H.Boqiyeva "Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkiletish", - T., 2008-yil.
4. T. G'afforova. "Boshlang'ich ta'lifda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", - T., 2011-yil.
5. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992
6. K.Qosimova.S.Matchonov,X.G'ulomova.SH.Yo'ldosheva. SH.Sariev. Ona tili o'qitish metodikasi. T.,Noshir, 2009.
7. Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik dostoni. T.: "Sharq", 1998.
8. Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik eposi. Akademik nashr. T.: "Fan", 1999.
9. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. T.: O'zbekiston, 2002
10. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. T.: 2006
11. Mirzayeva M. O'zbek xalq dostonlarida turkumlilik. T.: "Fan", 1985.
12. Mirzayeva S. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. T.: "Fan", 2004.
13. Yusupov Z.Yu. Mustaqillik sharoitida ta'lif-tarbiya ishlarining dolzarb muammolari. J.Ta'lif va tarbiya. - 1997.
14. Xolboyeva G. Xalq dostonlarida milliy qadriyatlar ifodasi // J. Xalq ta'limi. - 2004.№4.